
BOLA FARZANDLIKKA OLINSA, ALIMENT MAJBURIYATLARI TUGATILADI

Qonunchilikka ko'ra, foydasiga aliment undirilayotgan bola farzandlikka olinganda sud tomonidan belgilangan aliment majburiyati tugatiladi.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksining 147 moddasida qanday hollarda Aliment majburiyatlarining tugatilishi ko'rsatilgan:

-Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvda belgilangan aliment majburiyatlari taraflardan birining o'limi, mazkur kelishuv muddatining o'tishi yoki unda nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra tugaydi.

-Sud tartibida undiriladigan aliment to'lash:

-bola voyaga yetganda yoki voyaga yetmasdan turib to'la muomala layoqatiga ega bo'lganda;

-foydasiga aliment undirilayotgan bola farzandlikka olinganda;

sud aliment oluvchining mehnatga layoqati tiklangan yoki uni yordamga muhtoj bo'lmay qolgan deb topganda;

mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj aliment oluvchi sobiq er yoki xotin yangi nikohga kirganda;

-aliment oluvchi yoki aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs vafot etganda tugatiladi.

MAJBURIY IJRO BYuROSI QUVASOY SHAHAR BO'LIMI

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-01-19 11:33:22